

SHONLI TARIX BILAN YANGI ISLOHOTLAR TUTASHGAN CHORRAHA – XORAZMDAGI O‘ZGARISHLAR ODAMLAR HAYOTIDA AKS ETISHI ZARUR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji va aholi hayoti bilan yaqindan tanishish, yangi istiqbolli rejalarni belgilash maqsadida 1-2-may kunlari Xorazm viloyatida bo‘ldi.



2-may kuni Urganch tumanida Xorazm viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm shonli tariximiz bilan yangi islohotlar tutashgan chorraha ekanini ta'kidladi.

Logistika zanjiridan uzoqda, tabiiy resurslari cheklangan bu diyorda o'tgan yili "kichik va o'rta biznes yili" bo'ldi deyish mumkin. 2024-yili viloyatda 7 ming yangi tadbirkor ish boshlagan, 47 ta korxona kichikdan o'rtaga o'tgan. 1 ming 700 ta korxona faoliyati tiklangan. Bularning natijasida viloyatda bir yil ichida 290 ming aholi ishli bo'lgan.

Lekin oldinda dolzarb masalalar ko'p. Viloyatda kambag'allik darajasi hali ham 12 foiz atrofida, 45 ming fuqaro ishsiz. Shuning uchun hokimlar va o'rinbosarlari har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, yangi ish o'rinlari yaratishi, sanoat, servis, turizm, qishloq xo'jaligi, eksport salohiyatini yanada oshirishi zarurligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari bu sohalaridagi imkoniyatlar va ularni ishga solish choralarini ko'rsatib o'tdi.

Masalan, yurtimizda turizm eksporti salohiyati 10 milliard dollar bo'lsa, shuning 2 milliard dollari aynan Xorazmga to'g'ri keladi. Afsuski, bu to'liq ishga solinmayapti.

Viloyat bo'yicha jami 263 ta madaniy meros obidasi mavjud. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda ular turistik maskanga aylantirilsa, qo'shimcha daromad va ish o'rinlari bo'ladi. Shuningdek, chet eldan tajribali arxeologlarni jalb qilib, tarixiy joylarni aniqlash va tiklashga mablag' ajratiladi.

Xorazmda 40 dan ortiq hunarmandchilik yo'nalishlari rivojlangan bo'lib, sayyohlar mahsulotlari tayyorlash jarayoniga ham qiziqadi.

Turizmga o'qatlanish joylari juda muhim. Prezidentimiz milliy taomlarimizni chet ellarda tanitayotgan restoratorlarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi. Xorijda o'zbek restoranlari

tashkil qilishda ro'yxatdan o'tish, ruxsatnoma va ish yuritish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismi qoplab berilishi belgilandi.

Mehmon o'rinlari va transport qatnovlarini ko'paytirish, yangi ko'ngilochar va tematik maskanlar barpo etish, gid va ofitsiantlar tayyorlash masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Umuman, bu yil jami 200 million dollarlik 91 ta loyihani bajarish, turizm va xizmatlar sohasida 100 mingta ish o'rni ochish vazifasi qo'yildi. 2 million xorijiy va 10 million mahalliy sayyoh jalb qilib, turizm eksporti 700 million dollardan oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Iqtisodiyot sohasida ham imkoniyat ko'p. Bu yil Xorazmda kamida 6 foiz iqtisodiy o'sishni ta'minlab, yalpi hududiy mahsulotni 60 trillion so'mdan oshirish ko'zda tutilgan. 265 ming aholini band qilib, 104 ming odamni kambag'allikdan olib chiqish mo'ljallangan.

Masalan, xususiy lashtirish dasturiga asosan 2025-yilda viloyatda 41 ta davlat binosi, 350 gektar yer uchastkasi savdogga qo'yilaypti. Bu xizmat ko'rsatish, turizm va ishlab chiqarish sohalarini uchun katta imkoniyat.

So'nggi sakkiz yilda Xorazmda mebel sanoati 3 karra o'sdi. Xonqadagi 10 gektar yerda mebelchilik zonasi tashkil etildi. Bu tarmoqni yanada rivojlantirish uchun xorijdan dizayner, marketolog, injener-texnolog olib kelinadi. Yurtimizda bu sohaga qo'shimcha turki berish uchun maxsus dastur tayyorlash topshirig'i berildi.

Hozir jahondagi murakkab sharoitda innovatsiya va investitsiya jalb qilgan davlat yutyapti. Bu borada Xorazmda ham rejalar ulkan. Jumladan, bu yil 900 million dollarlik 12 ta yirik, 480 ta hududiy loyiha ishga tushiriladi. 65 turdagi mahsulot, 5 turdagi uskuna ishlab chiqarilib, mahalliy lashtirish hajmi 1,7 trillion so'mga yetkaziladi. 1,5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, 510 million dollarlik eksport qilinadi.

Masalan, Qo'shko'pir tumanidagi 175 gektarda "O'zbekiston — Xitoy texnopark" tashkil qilinmoqda. U yerda 1 milliard dollarlik 16 ta investitsiya loyihalari bo'ladi.

Tuproqqal'ada 10 milliard dollarlik gaz-kimy o'zgarishlarini birinchi bosqichi boshlanadi. Unda yiliga 2 million tonna 14 turdagi yuqori qo'shilgan qiymatli bazaviy polimer mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Xorazmda 663 ta qurilish materiallari korxonasi bo'lib, viloyatning drayver tarmoqlaridan biriga aylandi. Endi ularning mahsulotlari sotilishi moliyaviy choralar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Tarmoqda 100 million dollarlik yana 40 ta loyiha boshlanadi.

Slovakiya kompaniyasi tomonidan Tuproqqal'a tumanida 170 million dollar hisobidan raps o'simligi yetishtirish va undan bioetanoli ishlab chiqarish yo'liga qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida 60 million dollarlik 56 ta loyiha ishga tushiriladi. 3 ming 400 gektar yer qayta foydalanishga kiritiladi. 1 ming 200 gektar sanoatlashgan mevali bog'lar tashkil qilinadi.

Avstriyaning "Bauer" kompaniyasi bilan Xorazmda 7,5 ming gektarda yomg'irlatib sug'orishni joriy qilish rejalashtirilgan. Bunda fermerlarga shunday texnikalar tayyor o'rnatilib, lizing asosida so'mda yillik 2,5 foiz stavkada 10 yil muddatga beriladi.

Xorazmlik fermerlar tannarxni tushirish uchun izlanib, traktorga zamonaviy "avtopilot" o'rnatgan. Natijada chigit to'liq aniqlikda ekiladi, sifat oshadi. Bu tashabbusni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit berilishi qayd etildi.

Viloyatda ekin maydoniga suv chiqarish oson emas. Respublikadagi nasoslarning 21 foizi shu yerda joylashgan. Ularga quyosh paneli o'rnatib, elektr xarajatini iqtisod qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Baliqchilikni rivojlantirish, sutni qayta ishlash, dalalarda qo'shimcha

mahsulotlar yetishtirish chora-tadbirlari belgilandi.

Aholi farovonligini oshirish maqsadida bunyodkorlik ishlari ham rejalashtirilgan. Jumladan, bu yil 7 ming xonadonli 200 ta ko'p qavatli uy quriladi, 1,5 ming kilometr yo'l va 20 ta ko'priklar quriladi. Bu sohada 20 ming nafar aholi ish bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sohalarini rivojlantirish vazifalari ham ko'rsatib o'tildi. Tibbiyot maskanlari va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini ko'paytirib, aholini sog'lomlashtirish, texnikum va oliygoh talabalarini dual ta'limga qamrab olish, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda belgilangan chora-tadbirlarni bajarish rejalari yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshittildi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Xorazmdagi "Urganch klaster"ning yangi korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Klasterning tashkil etilganiga besh yil bo'lgan. Bugun u paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib, tayyor kiyim-kechak tikishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olgan yaxlit "zanjir". Uning tizimida 3 ming kishi ish bilan ta'minlangan.

Tadbirkor 8 ming 500 gektar maydonda yetishtirilgan paxtani 100 foiz qayta ishlaydi. Buning uchun paxta tozalash va yog' zavodlari bor.

Shu kunlarda klasterning ip-yigiruv hamda mato to'qish quvvati ortdi. Qo'shimcha investitsiya evaziga yana ikkita korxona faoliyati yo'liga qo'yildi. Germaniya, Yaponiya va Turkiyadan zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatildi.

Korxonada o'quv-tajriba markazi tashkil etilgan. Tikuvchi va dizayner-mutaxassislar avval shu yerda o'qitilib, keyin ishga qo'yiladi.

Bularning natijasida ishlab chiqarish hajmi sezilarli ortdi. Yiliga 10 ming 800 tonna

atrofida ip-kalava va 3 million dona tikuvchilik mahsulotlari tayyorlash quvvati yaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi fabrikalarda bo'lib, ish jarayoni, tayyor mahsulotlarni ko'zdan kechirdi. Tikuvchi xotin-qizlar bilan suhbatlashdi. Ularning oylik maoshlari, mehnat sharoitlari bilan qiziqdi.

Bu yerda tayyorlanayotgan yuqori sifatli kiyim-kechaklarning katta qismi eksportga yo'naltiriladi. Korxonaning yillik eksport salohiyati 28 million dollar atrofida.

Mahsulotlar turi va sifatini ko'paytirib, eksport ko'lamini kengaytirish, energiya tejamlilik orqali mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Urganch shahrida barpo etilgan Kasbiy ko'nikmalar mintaqaviy markazini borib ko'rdi.

Majmua Koreya xalqaro hamkorlik agentligi — KOICAning 9 million dollarlik grant mablag'lari hisobidan qurilgan. Zamonaviy kasblar uchun zarur jihozlar, simulyatsiya uskunalar keltirib o'rnatilgan. Bu yerda avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, payvandchilik, yuk ko'tarish mashinistligi, elektron va maishiy texnika ta'miri, mebelsozlik, sartaroshlik va kosmetologiya, mobilografiya hamda mehmonxona xizmati kabi 10 ta talab yuqori bo'lgan mutaxassislik o'rgatiladi.

Buning uchun qariyb 2 gektar hududda zamonaviy o'quv binolari, amaliy mashg'ulot xonalari, 64 o'rinni yotoqxona va boshqa yordamchi inshootlar qurilgan. Muassasa yiliga 300 nafar tinglovchini 6 oylik kasbiy tayyorgarlik kurslarida o'qitish imkoniyatiga ega.

Prezident o'quv-mashg'ulot xonalarini kirib ko'rdi. Mehmonxona yo'nalishida saboq olayotgan yoshlar bilan samimiy suhbatlashdi.

Urganch aeroportini Incheon aeroporti bilan sheriklikda dunyo darajasiga olib

chiqamiz. Katta turizm markazlari, mehmonxonalar quraymiz. Endi xorijiy turistlar ko'p kelishi uchun xizmat ham xalqaro darajada bo'lishi kerak. Ular tariximiz, tabiatimiz uchun keladi, servis yaxshi bo'lsa, xursand bo'lib ketadi. Bunda ko'p narsa xizmat ko'rsatuvchilarning muomalasi, etikasi, saviyasiga bog'liq. Shuning uchun bu imkoniyatdan foydalanib, kasbni yaxshi o'rganing. Kelgusida o'zingiz ham tadbirkor bo'lishga harakat qiling, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Markazda Migratsiya agentligi hamda Koreyaning Hyundai va Germaniyaning SBH West bilan hamkorlikda elektromobillarga xizmat ko'rsatish ixtisosligi ham yo'lga qo'yilgan. Bu esa ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos kadrlar yetishtirish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlik keng yo'lga qo'yilgan. Joriy yil yanvar oyida markazning boshqaruv xodimlari Koreya Respublikasida 2 haftalik o'quv kurslarini tamomlab qaytgan. Ayni paytda esa ushbu mamlakatda 20 nafardan ziyod o'qituvchi va murabbiylar malaka oshirmoqda.

Davlatimiz rahbari malakali kasbiy tayyorgarlik sanoatlashtirish, umuman, davlat rivojining asosi ekanini ta'kidladi. Amaliyot uskunalaridan samarali foydalanish, dars smenalarini oqilona tashkil etib, ko'proq yoshlarni o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Ahmadjon SHOKIROV,
O'za maxsus muxbirlari**



ULKAN REJALARIMIZNING YANA BIR AMALIY NATIJASI

Davlatimiz rahbarining Xorazm viloyatiga tashrifi tarixiy voqealarga boy bo'ldi. Prezidentimiz Xiva shahrida "Arda Xiva" xalqaro turizm markazi tashkil etilish marosimidagi nutqida: "Biz ajdodlarimiz qoldirgan beqiyos ilmiy-ma'naviy merosni asrab-avaylash, boyitish va dunyoga keng targ'ib etishni o'z oldimizga ulug' maqsad qilib qo'yganimiz", deya ta'kidladi. Bu yangi O'zbekistonning ma'rifiy siyosati yangi bosqichga chiqqanidan dalolat.

Zero, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun aniq vazifalar ham berildi. Xususan, Ma'mun akademiyasi binosi oldidagi 2 gektar bog' "Buyuk allomalar" nomli ochiq osmon ostidagi smart muzeyga aylantiriladigan bo'ldi. Bu orqali Xorazmda kamol topgan o'nlab mumtoz ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, boy ijodiy merosi interaktiv usulda bir nechta xorijiy tillarda sayyohlarga taqdim etiladi. Bu, hech shubhasiz, yoshlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu muzey, unda ajdodlarimiz hayot yo'lining ko'rsatib berilishi yoshlarga ibrat maktabi bo'ladi.

Davomi 3-beta

O'ZBEKISTON TASHABBUSI: 29-APREL – XALQARO ZILZILA QURBONLARINI XOTIRLASH KUNI

BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan 29-aprelni Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi.

Hujjatga dunyoning barcha mintaqalaridan 80 dan ortiq davlat hammualliflik qilgan. Rezolyutsiya O'zbekiston Prezidentining zilzila qurbonlari xotirasiga hurmat ko'rsatish va bu borada xalqaro hamkorlik zarurligini eslatish maqsadida xotira va birdamlik kunini ta'sis etish to'g'risidagi tashabbusiga asoslangan.

2023-yil 16-mart kuni bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdan tashqari sammitida davlatimiz rahbari tomonidan favqulodda vaziyatlar bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni ilk bor 2026-yil 29-aprel kuni nishonlanadi. Bu sana 1966-yilda Toshkent shahrida sodir bo'lgan vayronkor zilzilaning 60 yilligi munosabati bilan belgilandi.

Mamlakatimizning BMTdagi doimiy vakili, elchi Ulug'bek Lapasov o'z chiqishida O'zbekiston Prezidenti tomonidan turli xalqaro anjumanlarda bunday xalqaro sanalarni belgilash tashabbusi bir nechta bor ilgari surilganini alohida ta'kidladi.

Davomi 2-beta

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonida keng qamrovli maqsadlar nazarda tutilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarish, diniy-ma’rifiy sohadagi ezgu g‘oya va tashabbuslarni xalq manfaatlaridan kelib chiqib izchil davom ettirish farmonning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Prezidentimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, uzoq va yaqin davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash borasidagi tashabbusi tufayli O‘zbekistonning do‘stlari, xayrixohlari xalqaro maydonda ham ko‘payib bormoqda. Qo‘shni, yaqin va uzoq mamlakatlar

bag‘rikenglik va dinlararo do‘stlik-hamkorlik g‘oyalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu holatni nafaqat yurtdoshlarimiz, balki turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ham e’tirof etmoqda.

Farmonda belgilangan asosiy maqsadlar fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash, har bir shaxsning dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik huquqini kafolatlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘ymaslik, diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunish

Kengash tarkibiga siyosiy arboblar, jamoatchilik faollari, dinshunos olim va mutaxassislarni kuzatuvchi sifatida kiritish, kengashga diniy konfessiyalar muammolari bo‘yicha davlat va nodavlat tashkilotlarga so‘rov, murojaat va tavsiyalar yuborish huquqini berish nazarda tutilgan. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida hududiy kengashlar tashkil etish hamda kengash tomonidan turli konfessiyalarga oid diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari o‘rtasida sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish kabi vazifalar belgilangan.

Farmonda Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi muassisligida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

Tabiiyki, har bir millat o‘zining ma’naviy boyligi, tarixiy merosi va ulug‘ allomalari bilan faxrlanadi. Bunday ulkan shaxslardan biri tasavvuf ilmi va irfon yo‘li yirik namoyandalaridan Xoja Bahouddin Naqshband hazratidir. Uning ilmiy merosi nafaqat islom olami, balki butun insoniyat ma’naviyatida alohida o‘ringa ega.

Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayotida juda katta o‘rin egallagan. Bu ta’limot boshqalar mehnati ortidan kun kechirish, tekinko‘rlik, ijtimoiy zulm-istibdodni qat’iyan qoralaydi. Odamlarni o‘z kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirgan. Savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma’rifat, xattotlik, naqqoshlik, quruvchilik kabi foydali va xayrli yumushlar bilan shug‘ullanishga da’vat etgan. Shuning uchun ham ilm-ma’rifat, adabiyotning yirik namoyandalari bo‘lmish Abdurrahmon Jomiy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor, Maxtumquli Firog‘iy singari yuzlab ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoir va mutafakkirlar naqshbandiya yo‘lini tanlagan.

Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi ko‘pchilikning ancha yildan buyon ushalmay turgan orzusi edi. Endi yangi markaz buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik tariqati allomalariining yuksak insonparvarlik g‘oyalarni ilmiy asosda o‘rganish, yosh avlodni bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida targ‘ibot ishlarini olib boradi. Tasavvuf ta’limoti tarixi va bugungi ahamiyatini ilmiy tadqiq etadi.

Ulug‘ mutasavvuf ilmiy merosini o‘rganish orqali akademik tadqiqotlar yo‘nalishlari ham kengayadi. Uning asarlari nafaqat irfonga oid, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy sohalarida ham mustahkam asosga ega. Ushbu meros xalqaro miqyosda e’tirof etilgan, uning tadqiqi turli tillarga tarjima qilinmoqda va dunyo ilmiy jamoatchiligi orasida qiziqish uyg‘otmoqda.

Yana bir muhim jihat shuki, diniy-ma’rifiy sohadagi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida doimiy asosda faoliyat yurituvchi Diniy-ma’rifiy sohada ta’lim, fan va ilmiy-tadqiqotga oid faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi hamda tarkibi tasdiqlandi. Kengash diniy-ma’rifiy sohada ta’lim, fan va ilmiy tadqiqot ishlarining barcha jarayonlarini muvofiqlashtirish masalalariga mas’ul bo‘lgan maslahat organidir.

Uning asosiy vazifalari etib “Uchinchi Renessans — yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosida ulug‘langan vatanparvarlik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy g‘oyalarni aholi orasida keng targ‘ib etish, diniy-ma’rifiy sohadagi muassasalar faoliyatini chuqur o‘rganib borish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar, innovatsion ishlanmalarni tatbiq etish hamda ilmiy-uslubiy faoliyatini muvofiqlashtirish belgilangan.

Bundan tashqari, soha tashkilotlarida to‘plangan ilmiy-uslubiy ishlanma va tajribalarni tahlil etish asosida ulardagi ta’lim mazmunini takomillashtirish va muvofiqlashtirish, o‘quv rejasi va fan dasturlarini ishlab chiqishda uzviylik tamoyillarini ta’minlash, mamlakatning barcha ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida bajariladigan diniy tadqiqotlar mavzusi va yo‘nalishlarining ahamiyati, dolzarbligi yuzasidan tegishli tavsiyalar berish ham kengash vazifasidir.

Farmon keng ko‘lamli. Unda nazarda tutilgan jihatlar fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida muhim va zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Muzaffarxon JONIYEV,
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori



bilan mutlaqo yangi — sog‘lom siyosiy va teng sheriklik asosidagi iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Xalqaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlari, mexanizmlari joriy etilmoqda.

Mamlakatimizda azaldan turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashab kelgan. Davlat tomonidan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan bag‘rikenglik an’anasi doimo qo‘llab-quvvatlanib, uni yanada rivojlantirishga sharoit yaratib berilgan.

Xususan, O‘zbekistonda fuqarolarning vijdon va diniy erkinligi sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, jamiyatda diniy

muhitini yaratishdan iborat. Uning ijrosi orqali mamlakatimizda diniy sohadagi davlat siyosati yanada takomillashadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi, jamiyatda tinchlik va totuvlik muhiti mustahkamlanadi.

Endi yurtimizda yashovchi turli din vakillarining yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik hissini oshirish, jamiyatda konfessiyalararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash maqsadida Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning konfessiyalar ishlari kengashi faoliyati takomillashtiriladi.

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI: 29-APREL — XALQARO ZILZILA QURBONLARINI XOTIRLASH KUNI

► Boshlanishi 1-betda

Qayd etilganidek, zilzilalar eng halokatli tabiiy ofatlardan biridir. Ular barcha tabiiy ofatlar orasida nisbatan kichik ulushni tashkil etishiga qaramay, ko‘pincha eng fojiali oqibatlarga olib keladi.

O‘zbekiston delegatsiyasi maslahatlashuvlarda ishtirok etgan va loyihani ishlab chiqish jarayoniga katta hissa qo‘shgan barcha a‘zo davlatlarga hamda BMTning Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish boshqarmasiga ko‘rsatilgan yordam va hamkorlik uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

Rezolyutsiya BMTga a‘zo davlatlar, BMT tizimidagi muassasalar va boshqa xalqaro tashkilotlarni Xalqaro kunni nishonlashga, xususan, aholi xabardorligini oshirish, favqulodda vaziyatlarga chidamlilik va tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan axborot-targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish orqali ko‘maklashishga chaqiradi.

Hujjatning qabul qilinishi jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. Dunyoning turli burchaklarida zilzilalar tez-tez sodir bo‘layotgan sharoitda ushbu tashabbusning dolzarbligi alohida ta’kidlanmoqda.

Ushbu rezolyutsiyaning ma’qullanishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotganini, shuningdek, butun insoniyat manfaatlariga xizmat qiluvchi global yechimlarni ilgari surishdagi hissasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Toni-Sha Frekleton, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha boshqarmasining Nyu-York ofisi rahbari:

— Biz 29-aprel sanasini Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni deb e’lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiyani qabul qilish bilan butun dunyoda zilzilalarning jamiyatga chuqur ta’sirini bartaraf etish yo‘lida muhim qadam qo‘ydik. Tashabbus O‘zbekiston, Chili va Filippin tomonidan ilgari surilgan.

BMT Bosh Assambleyasi zilziladan omon qolganlarni ko‘llab-quvvatlash va kelajakdagi seysmik tahdidlarga jamoaviy chidamlilikimizni kuchaytirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu xalqaro sana nafaqat yo‘qotganlarimizni eslash, balki shoshilinch va zarur choralarlarni ko‘rishga ham xizmat qiladi.

Biz birgalikda mazkur sanada xabardorlikni oshirish, jabrlanganlar bilan birdamlikni shakllantirish va kelajak avlodlar uchun zilzila xavfini kamaytirishda haqiqiy yutuqlarga erishish uchun kuchli katalizatorga aylanishimiz mumkin.

“Dunyo” AA
Nyu-York



Turizm

Uzoq yillik tanaffusdan so‘ng Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo mahalliy aeroporti faoliyati tiklangani haqidagi xabar ko‘pchilikni, jumladan, Sariosiyoдек so‘lim manzil tomon sayohatga chiqmoqchi bo‘lganlarni ham quvontirdi.

Aeroport faoliyat yuritmay qo‘yganiga bir necha o‘n yillar bo‘lgan, aerodrom majmuasining uchish-qo‘nish yo‘lagi 1976-yildan buyon ta’mirlanmagan edi. Keyingi to‘rt-besh yilda boshlangan tashabbus va sa’y-harakatlar tufayli aeroporti rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Kuni kecha birinchi texnik parvoz qabul qilindi.

— U viloyatdagi ikkinchi aeroport bo‘ldi, — deydi Termiz xalqaro aeroporti bo‘lim boshlig‘i Dilmurod Hikmatov. — Voha shimolidagi aerodrom so‘nggi yillarda kapital ta’mirlandi. Uzunligi 1550, eni 35 metr bo‘lgan uchish-qo‘nish yo‘lagining butun uzunligi bo‘ylab ikki qatlamda, yurish yo‘lagi hamda ikkita ATR-72-60 samolyoti uchun to‘xtash joylari asfalt-beton bilan mustahkamlandi. Hozir 100 nafargacha yo‘lovchiga mo‘ljallangan yangi terminal qurilishi ham nihoyasiga yetkazilmoqda. Barcha ish yakunlangach, bir oy ichida Sariosiyo aeroportiga muntazam reyslar qatnovi rejalashtirilgan.

Aeroportning qayta ochilishi yo‘lovchilar uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish barobarida vohaga keladigan sayyohlarning tezlashi ko‘payishida ham muhim ahamiyatga ega.

— Sariosiyoening tog‘li manzillari, tabiat mo‘jizalari, qadamlarini tomosha qilishga ishtiyoqmandlar ko‘p. Poytaxtdan chiqqan sayyoh avtomobilda 10-12, poyezdda esa 13-14 soat yo‘l yuradi. Biroq samolyotda 40-45 daqiqada Sariosiyoğa yetib keladi. Bu imkoniyatlar hammanizni quvontirdi, — deydi “Nuroniy” jang‘armasi Sariosiyo tumani bo‘limi raisi Salom Qosimov.

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizmning ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sariosiyo tumani ham betakror tabiat manzaralari, qadamlari bilan xorijlik va mahalliy sayyohlarda azaldan qiziqish uyg‘otib keladi. Osmontalash tog‘lar etagidagi so‘lim Sangardak qishlog‘i ham sayyohlarni eng ko‘p o‘ziga chorlovchi manzillardan biri. Dengiz sahidan 2000 metr balandlikda joylashgan bu qishloq bir necha yuz



metr balandlikdan tushuvchi lojuvard sharsharasi bilan mashhur.

— O‘zbekiston boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va go‘zal tabiati bilan turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati turizm boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Shuhrat Ibrohimov. — Shunday yuksak e’tibor tog‘ qo‘ynidagi Sangardakdek mafunkor qishloqqa oshiqayotgan sayyohlar sonini yanada oshirmoqda. Qishloq sayyohlikning ziyorat, ekologik, etnografik, tibbiyot, agrar yo‘nalishlari rivojlantirish uchun qulay imkoniyat va muhitiga ega.

Hududning xushmanzara tabiati, shifobaxsh giyohlari, etnografik merosi har qanday kishini o‘ziga mafun etadi. Ma’danli buloq suvi turli kasalliklarga shifoligini sangardakliklar bot-bot ta’kidlaydi.

— Ilgari xorijiy davlatlarga borishga ko‘pchilikning imkoniyati yetmasdi. Yo‘llar yopiq, to‘siqlar ko‘p edi. Shu sababli chet elga borish bizga havasdek tuyulardi, — deydi tibbiyot fanlari doktori, O‘zbekiston Qahramoni Rahmon Muhammadiev. — Hozir dunyo ko‘raman deganga yo‘llar keng: qay manzilga sayohatga chiqsangiz, ketaversiz. Umrim davomida 54 ta davlatga safar qilibman. Ayniqsa, keyingi yillarda o‘nlab mamlakarga bordim. Xulosam shuki, O‘zbekistondan chiroyli mamlakat ham, sayohat uchun go‘zal manzil ham yo‘q. Vatanim bo‘lgani uchun aytmayapman. Kuzatuvlarim natijasi shunday. Ikkinchi jihat, avvallari ko‘pchilik xorijga intilgan bo‘lsa, hozir ichki turizmga qiziqish katta.

Ichki sayyohlik rivojlanishi uchun zamonaviy sharoit yaratish muhim. Shu bo‘is, hududda barcha qulaylikka ega yangi mehmonxonalar qurilmoqda. Yo‘l infratuzilmasi yaxshilanib, savdo, maishiy va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ishga tushirilyapti.

— Bahor fasli bu tomonlarga o‘zgacha nafosat bilan keladi. Atrof-muhit yashillikka burkanib, rang-barang gullar tarovat sochadi. Ayniqsa, shu kunlarda Sariosiyoening Hurvatan adirlarlari qirg‘aldog‘larga burkangan, — deydi sariosiyoilik mehnat faxriysi Abduraim Rahmonov. — Tabiatni sevuvchi, go‘zallikni qadrllovchi barcha yurtdoshimizni bu kengliklarga, adirlariga sayohatga chorlaymiz. Zero, betakror manzaralar bag‘rida xotirjamlik his qilasz.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrda “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori vohaning sayyohlik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanib, sohani iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida Sariosiyo tumanidagi Sangardak, Boysun tumanidagi Omonxona turizm qishloqlari hamda Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Oqtepa” suv ombori qirg‘og‘ida “Obihayot” turistik markazi bunyod etilib, sayyohlarga keng ko‘lamda xizmat ko‘rsata boshlaydi. “Omonxona” dam olish maskaniga olib boruvchi yo‘l bo‘yida zamonaviy

kemping majmuasini qurish loyihasi doirasida ishlar allaqachon boshlangan.

— Prezidentimizning janubdagi qadimiy vohada turizmni rivojlantirishga qaratayotgan e’tibori viloyatning sayyohlik salohiyatini jahonga keng namoyish etishda muhim omil bo‘lmqda. Ayniqsa, uzoq o‘tmishdan so‘zlaydigan mashhur arxeologik yodgorliklar, tarixiy obidalar, ikki ming yillik tarixga ega eski shahar xarobalari, turli asrlarga oid osori atiqalar bilan ham dunyo qadimshunoslarida katta qiziqish uyg‘otib kelgan, — deydi arxeolog Zebo Alimardonova. — Endi nafaqat qadimshunoslarni, tarix ishqibozlarini ham Surxon vohasi o‘ziga tortiyapti. Go‘zal tabiat manzaralari, purviqor tog‘lar, shifobaxsh buloqlar suvi, ajdoddan meros qolgan milliy hunarmandlik buyumlari, urf-odatlar, noyob taomlarga xorijlik sayyohlarning oshuftaligi oshib bormoqda.

Surxondaryoning so‘lim va mafunkor joylaridagi obyektlarni loyihalash, qurish va jihozlash ishlariga nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari, investorlar va xorijlik mutaxassislar jalb etilmoqda.

Joriy yil 9-aprel kuni davlatimiz rahbari huzurida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida turizm sohasini rivojlantirish va turizm qishloqlarini tashkil etish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi. Ushbu toplashlarga ijrosini ta’minlash maqsadida Nilu mahallasining turizm salohiyatini oshirish va uni turizm qishlog‘iga aylantirish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, mahallada joylashgan Mullo Abduraim Oxun ziyoratgohining hozirgi holati o‘rganilib, ziyoratchilar uchun zarur shart-sharoit yaratiladi. Mahallada mehmon uylarini barpo etish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, sayyohlarni jalb etishga doir loyihalar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qo‘shni Sangardak mahallasida dor yo‘li, mehmonxona va savdo-servis obyektlari quriladi.

Yangi sayyohlik markazlari vohaning tog‘li va tog‘oldi hududlaridagi salohiyatdan yanada samarali foydalanib, turizmning yangi turlarini joriy etish, sanatoriya va xalqaro umummavsumiy kurort zonalarini yangi bosqichda rivojlantirib, aholi bandligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



ARDA XIVA

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!ULKAN REJALARIMIZNING YANA
BIR AMALIY NATIJASIOzodbek NAZARBEKOV,
O‘zbekiston madaniyat vaziri

Boshlanishi 1-betda

Viloyatni iqtisodiy jihatdan yuksaltirish borasida ham juda ko‘plab tashabbuslar ilgari surildi. Shulardan biri, shubhasiz, Xiva shahrida “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ochilishi bo‘ldi.

“Xorazmning havas qilsa arziydigan yana bir bebaho boyligi bor. Bu — uning muhtasham tarixiy obidalaridir. Ochiq osmon ostidagi shahar-muzey — “Ichan qal’a” majmuasi umumbashariyat xazinasi sifatida UNESCO ro‘yxatiga kiritilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi”, dedi Prezidentimiz ushbu markazning ochilishi marosimida.

Bu o‘rinda betakror shoir Omon Matjonning “Ikki qal’a” she’ri yodimga tushdi. Unda shoir “Odam — Dishon qal’a, orzusi — Icho‘n!” deb yozadi. Bugun yangi O‘zbekiston orzusi ana shu Icho‘n qal’a kabi qalblarimizga chuqur o‘rnashdi. U ajdoddan meros ma’rifat ila sug‘orilib, amaliy harakatga aylanib bormoqda.

Fikrimizni IV Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining UNESCO va ISESCO kabi nufuzli

xalqaro tashkilotlar shafeligida o‘tkazilgani ham tasdiqlaydi. Ushbu anjuman ishtirokchilariga Prezidentimiz yo‘llagan tabrikda e’tirof etilganidek, festival bu yil ko‘hna Sharq gavhari — betakror Xorazm diyorida o‘tkazilgani unga alohida ruh va mazmun bag‘ishladi. Bu o‘lkaning dostonchilik maktabi g‘oyat qadimiy va boy tarixga ega. Ushbu maktabning Bola baxshi — Qurbonnazar Abdullayev, Qalandar baxshi — Ro‘zimboy Normatov, Abdulla Qurbonnazarov, Yetmishboy Abdullayev kabi el suygan vakillari ajdodlar merosi bizgacha yetib kelishiga xizmat qildi. Ular “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Alpomish” va “Xirmondali” kabi xalq dostonlarini yuksak pardalarda kuyadi. Shu tariqa xalqimiz orasida jasurlik, adolat va vatanparvarlikni tarannum etdi. Zero, yurtimiz tamaddunida baxshichilik san’ati doim alohida o‘rin egallagan. U asrlar osha xalqimizning epik tafakkurini shakllantirgan, musiqiy va folklor an’anasini avloddan avlodga yetkazgan. Aslida, har qanday millatning asl tarixi, madaniyati uning folklori, eposlari bilan ifodalanadi. Yozma manbalar soxtalashtirilishi, og‘izdan og‘izga o‘tgan tarixiy ma’lumotlar zamonga qarab o‘zgarishi mumkin. Ammo eposlarning tub-tubidagi asl qarashlar, qadriyatlar, voqea-hodisalar saqlanib qoladi. Shu jihatdan serqirra, boy folklori bor xalqni shonli tarixga ega deb atash mumkin. Xalqimiz ana shunday boy madaniy merosga ega ekani bizni haqli ravishda quvontiradi. Bu quvonch xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning faxri-iftixoriga aylanishi kerak. Shunda ular dostonlarimizda kuyilgan qahramonlar kabi vatanimizga munosib farzand bo‘lib kamol topadi.

Shu bois, yangi O‘zbekistonni bunyod



etishda madaniyat va san’atga alohida e’tibor berilayotgani quvonarli. Xususan, 2018-yil 1-noyabrda Prezidentimizning “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. O‘shandan beri yurtimizda har ikki yilda bir marta Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish an’ana aylandi.

Shu asosda 2019-yilning aprel oyida I Xalqaro baxshichilik san’ati festivali Termiz shahrida bo‘lib o‘tdi. Shundan so‘ng unga Nukus va Guliston mezbonlik qildi. Bu yil esa IV Xalqaro baxshichilik san’ati festivali Xivada yuksak saviyada o‘tkazildi.

Xivadagi festival doirasida IV Turkiy dunyo madaniyati forumi ham o‘tkazildi. Forum doirasida xalq og‘zaki ijodini saqlash

va rivojlantirishga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Xiva festivalida baxshilar, oqinlar, musiqashunoslar va folklorshunoslar o‘z milliy san’at namunalarini namoyish etib, turkiy xalqlar madaniy merosining boy va betakror qirralarini dunyoga ko‘rsatdi. Umuman, anjuman doirasida muhokama qilingan mavzularning o‘qildizida madaniy merosni asrash va keng targ‘ib etish kabi ezuq maqsadlar mujassam bo‘ldi. Bu esa O‘zbekistonning ma’rifiy siyosati xalqaro darajada yangi bosqichga chiqayotganini ko‘rsatmoqda.

O‘mi kelganda e’tirof etish kerak, keyingi yillarda qardosh o‘tkalarda tashkil etilayotgan yirik anjumanlar, ularda ilgari surilayotgan taklif va tashabbuslar ma’naviy birligimizni ta’minlash,

Shukrona

YUKSAK E‘TIROF — MEN
UCHUN KATTA BAKTOyimjon OTAJONOVA,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan
qishloq xo‘jaligi xodimi

Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi” degan naql bor. Bugun mana shu hikmatni o‘zimga shior bilib, yurtdoshlarimizga xizmat qilayotganimdan juda xursandman. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining tashrifidan so‘ng bog‘imizga yanada fazt kirdi. Chunki Prezidentimiz biz yetishtirayotgan ko‘chatlarni katta qiziqish bilan ko‘zdan kechirdi. Men va ishchilar bilan samimiy gaplashib, kerakli tavsiyalar berdi. Kamtarona mehnatimni yuqori baholab, yuksak unvon bilan mukofotladi.

Bu — men uchun katta baxt. Juda minnatdorman. Bildirilgan e’tibor va ishonchni oqlash uchun bundan buyon ham bor kuchim bilan harakat qilaman. Menimcha, har bir inson mehnati ortidan yaxshi gap eshitish, odamlarga biron naf yetkazishni xohlaydi. Zotan, insonning umr mazmuni ham shunda.

Daraxtlarga mehr berish, parvarishlash eng ezuq va xayrli ishlar. Ko‘chat ekib, bog‘ barpo etish, atrof-muhitni asrash otabobolarimizdan qolgan milliy qadriyatlar. Bejiz yangi tug‘ilgan farzandga atab yerga nihol qadalmagan. Boisi, daraxt bilan birga farzand ham o‘tib-unadi degan ezuq niyat bor.

Yerga ko‘chat ekish davlatimiz rahbari tashabbusi bilan umummilliy harakatga aylandi. Yurtimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida minglab daraxt niholi ekilmoqda. Biz ham ushbu ezuq tashabbusda munosib qatnashyapmiz. Jumladan, joriy yil tumandagi barcha maktab va bog‘chalarga 2000 tup qarag‘ay ko‘chati tarqatildi.

Insondan faqat ezuq amallar qoladi. Ajabmas, bugun biz yetishtirgan nihollar ertaga ulkan daraxtlarga aylanib, yurt chiroyiga chiroy qo‘shsa, bolalarimiz mevasidan bahra olsa. Bu yo‘lda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, davlatimiz rahbari boshlagan tashabbusga yelkadosh bo‘lishimiz darkor.



Kun nafasi

“JALOLIDDIN MANGUBERDI”
XORAZMGA QAYTMOQDATOSHKENTDAN XIVAGA 14 SOAT EMAS,
7 SOAT-U 40 DAQIQADA YETIB BORILADI

Xalqimizda “Ot — yigitning yo‘ldoshi”, “Ot — yigitning qanoti”, deb bejiz aytilmaydi. Ko‘zi yonib turgan, baquvvat, sevimli, sadoqatli tulpori bo‘lmaganida Jaloliddin Manguberdi ham Chingizxonga asir tushmaslik uchun daryoga bunchalik ishonch bilan sakramagan bo‘lardi. Er yigitning ulovi ham o‘zidek jasur va uchqur bo‘ladi, sira ortga tisarilmaydi. Daryoni kechib, tog‘dan uchib, cho‘lni ko‘chirib bo‘lsa ham egasini murodiga yetkazadi...

Prezidentimiz Xorazm viloyatiga tashrifi davomida hududdagi yangilanish va islohotlar, hayotga tatbiq etilayotgan yangi loyihalar bilan tanishish barobarida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun kelgusida qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni belgilab berdi.

Tashrif doirasida yurtimizda ishlab chiqarilayotgan vagonlar va Urganch — Xiva chekirlashtirilgan temir yo‘lini ko‘zdan kechirdi. Yangi poyezdda jamoatchilik bilan birga Urganchdan Xivaga bordi. Ayni shu yo‘nalish hozir 465 kilometr bo‘lib, Buxoro — Urganch — Xiva shaharlarini o‘zaro bog‘laydi. Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasida ishlab chiqarilgan, soatiga 250 kilometr masofani bosib o‘tadigan 6 ta elektropoyezd yo‘lovchilarga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari yo‘l bo‘yi yurtdoshlarimiz bilan samimiy suhbatlashib, yangi poyezd va vagonlarda aholiga yaratilgan zamonaviy qulayliklar bilan qiziqdi. Poyezd vagonlarining yangicha dizayni, yumshoq o‘rindiq va zamonaviy jihozlari, shirinsuxan, kayfiyatni ko‘taradigan, doim xizmatga shay, xushmuomala kuzatuvchilari yo‘lovchilar ishonchini oqlashi shubhasiz.

Poyezd derazasidan tashqariga boqqanda yo‘l bo‘ylab joylardagi obodonlashtirish va dehqonchilik ishlari, dala chetidagi ko‘chatlarga ko‘zingiz tushadi. Bu yashillik O‘zbekiston bo‘ylab faol davom ettirilayotgan “Yashil makon” umummilliy harakati natijasidir. O‘tgan yili loyiha doirasida viloyatda qariyb 10 million tup daraxt va buta ko‘chati ekilgan. Yirik sanoat korxonalari tomonidan “yashil belbog‘”lar barpo etilgan.



Albatta, bu qulaylik yurtdoshlarimiz uzog‘ini yaqin qilish bilan birga O‘zbekistonning jozibador sayyohlik markazi bo‘lgan Sharq gavhari — Xivaga sayohat qiluvchilarning ko‘payishiga zamin hozirlaydi. Zotan, temir yo‘l va yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish ishlari jadal sur‘atda davom ettirilayapti.

Ayni paytda Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘l uchastkasida elektrlashtirish ishlari tugatildi, 196,2 kilometrli Miskin — Nukus temir yo‘l liniyasida esa elektrlashtirish ishlari boshlangan. Eng quvonarli yangilikni esa davlatimiz rahbari Xiva shahrida “Arda Xiva” xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimida qayd etdi. 2026-yildan “Jaloliddin Manguberdi” nomi ostida Toshkent — Xiva yo‘nalishida soatiga 250 kilometr masofani bosib o‘tadigan elektropoyezdlar harakatlan boshlaydi. Bu endi yo‘lovchilar Toshkentdan Xivaga 14 soatda emas, shu vaqtning salkam teng yarmi muddatida — 7 soat-u 40 daqiqada yetib boradi, degani. Kelgusida mazkur tezyurar poyezdlar Nukusgacha qatnashi rejalashtirilmoqda.

Bu qatnov tufayli yiliga 3 milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatiladi, yuk poyezdlari o‘tkazuvchanligi qariyb 6 million tonnaga yetkaziladi. Yangi elektropoyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilishi tufayli yonilg‘i-energetika resurslari tejalandi. Natijada yiliga 123,6 milliard so‘m mablag‘ iqtisod qilinadi. Ya’ni sifat ko‘tarilib, xarajat karrasiga qisqaradi. Eng muhimi, ushbu poyezdlar hududlarning ekologiyasiga zarar yetkazmaydi.

maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilgani ham madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Yana bir jihat: hademay O‘zbekiston Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasiga to‘laqlonli a’zo bo‘lib kiradi. Hozir shu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu moddiy va nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va keng targ‘ib qilishda yangi uflar ochishi shubhasiz.

Bugungi globallashuv davrida inson madaniyati va ma’naviyatiga, ayniqsa, yoshlar ongiga turli tahdidlar kuchayib bormoqda. Mazkur jarayon oqibatida asl san’at o‘mini “ommaviy madaniyat”, ta’bir joiz bo‘lsa, madaniyatsiz “madaniyat” egallayotgan o‘rinlar ham borligi achinarli, albatta. Ana shunday bir vaziyatda mumtoz san’atni, xalq ijodiyotining nodir namunalari asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish nihoyatda muhim masala. IV Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ham nafaqat xalq ijodining bebaho durdonalarini sahnaga olib chiqdi, balki yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, baxshichilik maktabini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan, Sharq gavhari — Xorazm jahonga dong‘i kegan olimu fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir. Ana shunday diyor bugun mamlakatimizning ilm-ma’rifat o‘chog‘iga aylanayotgani quvonarli holat. Zero, avvalgi ikki Rennassans ajdodlarimiz ilm va ma’rifatni qo‘shqanot sifatida ko‘rish orqali erishgan. Ma’rifatsiz ilm jaholatga boshlashi oson. Shu ma’noda, bugun yangi O‘zbekistonning ma’rifiy siyosatini tahlil etganlar Uchinchi Rennassans sari dadil borayotganimizni e’tirof etmoqda. Demak, mamlakatimizning “Ichan qal’a”si yuksalib boryapti.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNI
O‘ZIMIZDAN, HALOLLIKKA
INTILISHIMIZDAN BOSHLASHIMIZ KERAK

Ulug‘bek MUHAMMADIYEV,

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi
jamoatchilik kengashi a‘zosi

Korrupsiyaning xavfi va oqibati haqida gapirish oson. Ammo unga qarshi samarali va tizimli kurashish og‘riqli, murakkab jarayon. Bu yo‘lda davlatning qat‘iyati, jamiyatning murosasiz munosabati va aniq mexanizmlar kerak. Bugun yangi O‘zbekistonda bularning barchasini amalga oshirishga imkoniyat va sharoit, kuch va shijoat, eng asosiysi, yuksak siyosiy iroda mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining davlatimiz rahbari raisligida shu yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida bu masala yanada keskin va ochiq muhokama qilindi. Xususan, Prezidentimiz

mamlakatda korrupsiya bilan bog‘liq muammolarni birma-bir ko‘rsatib, chuqur tahlil qildi, amalga oshirish zarur bo‘lgan ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Korrupsiya darajasini pasaytirish, uning oldini olish bo‘yicha eng quyi bo‘g‘ingacha tushishga e‘tibor qaratilmagani va tizimli kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotgan soha hamda yo‘nalishlar sanab o‘tildi, ularning yechimi aytiladi.

Korrupsiyaga qarshi preventiv mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha maxsus tuzilmalar faoliyati samarali tashkil etilmagani, ko‘plab sohalarida hali-hanuz korrupsiya darajasini pasaytirish choralari ko‘rilmayotgani tanqid qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan qator vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu vazifalarni hayotga samarali tatbiq etish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha boshlangan islohotlarni yangi bosqichda davom ettirish uchun katta qadam bo‘ldi.

Birgina farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ishlab chiqiladigan 21 ta normativ-huquqiy hujjat ro‘yxati va amaliy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ular orasida xalqimiz uzoq vaqtdan beri kutayotgan davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish, davlat fuqarolik xizmatchilari reyestrini belgilash, kadrlarning korrupsiyaga moyillik darajasini o‘rganish, korrupsiya jinoyatining aniq ro‘yxati hamda bu borada jazo choralarini kuchaytirishga qaratilgan dolzarb normativ-huquqiy hujjatlar bor.

Ularning har biri aniq tartib, mexanizm, mas‘ul organ, muddat va natija bilan belgilangan. Shuning uchun ham vazirlik va idoralar rahbarlariga ushbu farmon va uning

doirasida belgilangan vazifalarni sifatli, o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatildi. Bu shunchaki javobgarlik emas, davlat boshqaruvidagi keskin talab. Unda kechiktirish, uzr, qarama-qarshilik va “sababi bor” kabi bahonalarga endi o‘rin yo‘q. Bundan buyon rahbarlar hisobot emas, aniq va amaliy natija uchun mas‘uliyatni yanada kuchaytirishi zarur. Shunchaki “ma‘ruza”lar davri tugadi, endi natija kerak!

Siyosiy mas‘uliyat va shaxsiy
javobgarlik

Farmonga ko‘ra, milliy kengash har yili hududlar kesimida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlab, ijrosi ustidan nazoratni ta‘minlaydi. Bu degani, endi kurash faqat markazdagina emas, joylarda ham amaliy va qat‘iy ko‘rinishda bo‘ladi. Oliy Majlis palatalari har yili budjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan uchta vazirlik va idorada korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Shubhasiz, byudjet — xalq puli, uni nazorat qilish ham xalq vakillarining burchi. Shuning uchun bunday tizim korrupsiyaning manbalariga faqat tekshirish organlari emas, balki parlamentning siyosiy mas‘uliyati orqali ham ta‘sir o‘tkazish imkonini beradi deb hisoblayman.

Farmon bilan so‘z va amal uyg‘unligini ta‘minlaydigan yangi siyosiy madaniyat shakllantirilmoqda. Gap shundaki, endi vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar tegishli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarida ko‘rib chiqilayotganda ular tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq reja himoya qilinishiga oid tartib yo‘lga qo‘yiladi.

Buning ahamiyati shundaki, endilikda rahbarlik lavozimiga tayinlanmoqchi bo‘lgan

shaxsning dunyoqarashi, bilim va tajribasi bilan birga korrupsiyaga nisbatan munosabati uning reja va strategiyalarida aniq aks etishi ham eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bu bilan siyosiy mas‘uliyat va shaxsiy javobgarlik bir paytda talab qilinmoqda.

“Jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi” davomida har oyning 1-5-sanalarida reja asosida “qizil” toifadagi mahallalarga tushib, har bir jinoyatning kelib chiqish sabab va omillari tahlil qilinadi hamda prokuror va ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar beriladi. Demak, muammo “Qaysi mahallada nimalar bo‘lyapti?” degan savol bilan emas, “Nega bunday bo‘ldi, nimalar sabab bo‘ldi va kim javobgar?” degan yondashuv bilan o‘rganiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri davlat xaridlari va yirik investitsiya loyihalarida shaffoflik va raqobatni



ta‘minlash sanaladi. Endilikda davlat xaridlari vaqtida mahsulot yoki xizmatning bozordagi o‘rtacha narxiga nisbatan katta farq bilan amalga oshirilgan xarid uchun mansablar javobgar bo‘ladi. Bu shunchaki tartib emas, chin ma‘noda moliyaviy adolatni ta‘minlash vositasi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar orqali amalga oshiriladigan xaridlarni ikki baravar qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Bu bejiz emas, chunki to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar korrupsiya uchun qulay “eshik”, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yangi tartib esa shaffoflikni oshiradi, tendersiz, “tanish-bilish”lar orqali shartnoma berishga chek qo‘yadi, raqobat muhitini yaxshilaydi.

Xalq davlat xizmatini baholaydi:
“qoniqarsiz”, demak, rahbar
javobgar

Farmondan o‘rin olgan muhim yangiliklardan yana biri — endi xalqimiz davlat xizmatlarini o‘zi baholaydi, o‘zi nazorat qiladi. Buning uchun 2026-yil 1-yanvargacha qadimiy vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan ko‘rsatiladigan barcha davlat xizmatlarini tuman (shahar) kesimida aholining o‘zi baholaydigan tizim joriy etiladi. Bunda aholi tomonidan “qoniqarsiz” deb



baholangan davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi vazirlik, idora rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlarining shaxsiy javobgarligi belgilanadi. Agar aholi “qoniqarsiz” deb baholasa, rahbar shaxsan javobgar bo‘ladi. Mana shu xalqchil islohot!

Jamiyatdagi har bir insonning huquqiy muammolarga e‘tibor qaratishi va ularni hal qilish uchun oson va ishonchli mexanizmlardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi

asosidir. Komplayens nazorat — faqat huquqiy talablarga emas, balki axloq va etikaga ham bog‘langan tizim. U korrupsion holatlarni aniqlash, ularga qarshi choralar ko‘rish, tashkilotlardagi shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlashga yordam beradi. Shu bois, 2021-yildan boshlab mamlakatimizda 117 ta davlat organi va tashkilotida bunday tuzilmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘tgan davr mobaynida ularning ko‘magida sezilarli natijalarga erishildi, buni tan olmay iloj yo‘q. Ammo qo‘yilgan maqsad va vazifalar ijrosini ta‘minlash, afsuski, kutilganidek bo‘lmadi. Shu o‘rinda bunga nimalar to‘sqinlik qildi degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy.

Birinchidan, shu paytga qadar ichki nazorat tuzilmalarining huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalari, huquq hamda majburiyatlari alohida normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinmagan.

Ikkinchidan, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda rahbar xodimlarning shaxsiy namunasi, tashabbusi va mas‘uliyati yetishmadi. Uchinchidan, qonunchilikda ichki nazorat tuzilmalari mas‘ul xodimlari faoliyati samaradorligini maqsadli ko‘rsatkichlar — KPI asosida baholash va attestatsiyadan o‘tkazish tartibi belgilanmagan.

To‘rtinchidan, ichki nazorat tuzilmalarining ish beruvchisi vazirlik va idoralar rahbarlari bo‘lgani sababli tashkilot tizimida mavjud qonun buzilishi holatlarini fosh qilish uchun ularni mustaqillik yetishmadi. Shuning uchun yig‘ilishda tuzilmalar faoliyati davlatimiz rahbari tomonidan ham o‘rinli tanqid qilindi va nazorat bo‘linmalari ishini yangicha tizim asosida tashkil etish lozimligiga alohida urg‘u berildi.

Shu maqsadda yangi qarorda komplayens nazorat tuzilmalarining aniq ustuvor vazifalari belgilandi. Ularning mustaqil faoliyat yuritishi, real ta‘sir kuchiga ega bo‘lishi uchun muhim asos yaratildi. Ya‘ni qarorga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari o‘z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga, ustaviga ko‘ra davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida esa kuzatuv kengashiga bo‘lyunadi va uning oldida hisobdor bo‘ladi. Davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalari, tarkibiy tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari tomonidan tayinlanadi hamda faoliyati muvofiqlashtiriladi.

Yana bir muhim yangilik — xodimlarning moddiy rag‘batlantirilishini tashkil etishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining taqdimnomasi majburiy asosiy hujjat hisoblanishidir.

Qaror bilan davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarini tashkil etishning minimal mezonlari tasdiqlandi. Bu juda muhim. Aniq va yagona mezonning mavjud emasligi amaliyotda qator qiyinchilik, tushunmovchilik va muammolarni keltirib chiqarayotgan edi. Yangi tartibga ko‘ra, hududiy tuzilmalar va tarkibiy tashkilotlar mavjud bo‘lmagan davlat tashkilotlarining markaziy apparati shtat birligi soni 150 tagacha bo‘lsa, 1 nafar mas‘ul xodim, 150-400 tagacha bo‘lsa, markaziy apparatda 2 nafar xodimdan iborat bo‘linma, 400 va undan ortiq bo‘lsa, markaziy apparatda 3 nafar xodimdan iborat bo‘linma faoliyat yuritadi.

Hududiy tuzilmalar va tarkibiy tashkilotlar mavjud bo‘lgan davlat tashkilotlarining markaziy apparati shtat birligi soni esa 150 tagacha bo‘lsa, markaziy apparatda 2 nafar xodimdan iborat bo‘linma, har bir hududiy tuzilma va tarkibiy tashkilotlarda 1 nafardan mas‘ul xodim, 400 va undan ortiq bo‘lsa, markaziy apparatda 4 nafar xodimdan iborat bo‘linma, har bir hududiy tuzilma va tarkibiy tashkilotlarda 1 nafardan mas‘ul xodim, 400 va undan ortiq bo‘lsa, markaziy apparatda 2 nafar xodimdan iborat bo‘linma, har bir hududiy tuzilma va tarkibiy tashkilotlarda 1 nafardan mas‘ul xodim, 400 va undan ortiq bo‘lgan hollarda boshqarma, 2 va undan ortiq bo‘lgan hollarda bo‘lim tashkil etiladi.

Yana bir holat: tizimdagi tarkibiy tashkilotning umumiy shtatlari soni 400 va undan ortiq bo‘lsa, minimal mezonlar tatbiq etiladi. Bu esa nazoratning markazdan hududlarga yitib borishiga imkon yaratadi.

Sog‘liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi vazirliklari hamda “O‘zbekneftgaz” va “O‘zsvuva”minot” kabi ahamiyatli tarmoqlarda 2027-yilgacha tajriba tarzida to‘g‘ridan to‘g‘ri Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga bo‘lyunadigan bo‘linmalari tashkil qilinadi.

Nima uchun aynan shu beshta idora? Chunki ular xalq hayotiga bevosita ta‘sir qiluvchi asosiy sohalardir. Bu amaliyot yangi tizim samaradorligini sinovdan o‘tkazish uchun muhim tajriba maktabi bo‘ladi. Ushbu tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari rahbarlari to‘g‘ridan to‘g‘ri agentlik tomonidan tayinlanadi va bevosita uning nazoratida bo‘ladi. Bu esa tizimli yutuqlar va xato-kamchiliklarni aniqlashda “jonli laboratoriya” sifatida xizmat qiladi.

E‘tiborli jihatlardan yana biri, komplayens xodimlari endi maxsus stajirovka, malaka oshirish kurslari va attestatsiyadan o‘tadi. Ularning faoliyati KPI, ya‘ni aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadi va natijalar har yarim yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga taqdim etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda maqsadlarimiz tobora qat‘iyalashyapti, sa‘y-harakatlarimiz avvalgidan-da jiddiy tus olyapti. Bu kurash umummilliy harakat, siyosiy iroda va shaxsiy mas‘uliyat masalasiga aylanadi. Ammo qabul qilinayotgan qarorlar va joriy etilayotgan mexanizmlar qancha puxta bo‘lmasin, agar ijro etilmasa, barchasi qog‘ozda qolib ketishi hech gap emas.

Albatta, har birimiz korrupsiyaning xoli jamiyatda yashashga so‘zsiz haqlimiz, lekin bunga, avvalo, o‘zimiz mas‘ulmiz. Shu bois, o‘zgarishlar faqat davlatdan emas, har birimizning halollikka intilishimizdan boshlanadi. Shaxsiy manfaatlarimiz oldida ojizlik, qo‘rqoqlik, nomardlik qilmasak, halollik uchun kurashib, turli bahonalari bilan o‘zimizni oqlamay, aybni boshqalardan izlamay, befarqlanib yengsak, kutgan natijamiz, o‘ylagan maqsadlarimizga erishamiz. Bu haqiqat va uni tan olishimiz kerak!

Mamlakatimizda yer qonunchiligi

kiritilgan o‘zgartirishlar, bu

boradagi keng ko‘lamli ishlar

so‘nggi yillardagi eng muhim

islohotlardan biri sifatida e‘tirof

etilmoqda. Nega? Chunki jadal

globallashtirish sharoitida barqaror

va inklyuziv iqtisodiy o‘rinishga

erishish, sog‘lom raqobat beriladi

shakllantirish, investitsiyalar oqimini

kuchaytirishda yerni to‘laqonli

iqtisodiy muomalaga kiritish

dolzarb ahamiyatga ega. Chunki

bungacha davlat mulki hisoblangan

yer fuqarolar va yuridik shaxslarga

faqat foydalanish uchun, ya‘ni egalik

qilish yoki ijara huquqi asosida

berilar edi. Bugungi kunga kelib esa

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan

yerlarni xususiy mulk sifatida

rasmийlashtirish imkoniyati mavjud.

Bunga qanday zarurat
bor edi?

Qayd etganimizdek, bizda yaqin o‘tmishgacha yer uchastkalari faqat davlat mulki hisoblangan. Yer yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik hamda shaharsozlik faoliyati uchunгина davriy foydalanish uchun taqdim etilgan, xolos. Aholiga tegishli uylar ularning xususiy mulki sanalsa-da, qonunchilikka ko‘ra, imorat joylashgan yer davlat ixtiyorida bo‘lgan. Qolaversa, yer uchastkasiga nisbatan mulk huquqi to‘liq

Islohotlar amalda

YERNI XUSUSIYLASHTIRISH

SO‘NGGI YILLARDAGI ENG MUHIM
O‘ZGARISHLARDAN BO‘LDI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM

O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

kafolatlanmagani undan iqtisodiy aktiv sifatida foydalanish imkoniyatini cheklab, investitsion jozibadorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatardi. Bu

esa yer qonunchiligini isloh qilish, xususan, yerga nisbatan mulk huquqini shakllantirishni talab etardi. Shundan kelib chiqib, 2019-yilda

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarni xususiy lashtirish bo‘yicha qonun ishlab chiqildi. U keyinchalik takomillashtirilib, 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Shundan so‘ng boshqa bir qancha qonunosti hujjatlar amaliyotga kiritildi.

Mohiyati va afzalliklari

Yerni xususiy lashtirishning asosiy tamoyillaridan biri — mazkur jarayon odamlar xohishiga ko‘ra, ixtiyoriylik asosida amalga oshirilishi kerak. Ularni bunga majburlash qat‘iy taqiqlanadi. Bu borada aholi orasida keyingi paytlarda bir nechta so‘rov va tadqiqotlar o‘tkazildi. Natijalar ko‘rsatdiki, aksariyat yer mulkdorlarida “O‘zim yashab turgan yoxud foydalanib kelayotgan yer uchastkamni hech kim buzmaydi, shuncha yillardan beri foydalanib kelayman, bundan keyin ham hech kim tegmaydi”, degan fikr mavjud.

Lekin shu o‘rinda 2022-yilda “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganini ham eslab o‘tish joriy. Chunki mazkur qonun bilan jismoniy va yuridik shaxslarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli yer uchastkalarini yoki ularning qismlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyoji uchun olib qo‘yish tartib-taomillari belgilangan. Biroq bu amaliyot jismoniy va yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bu agar yer uchastkasi xususiy lashtirilgan bo‘lsa, uni jamoat ehtiyojiga olish faqatgina mulkdor xohlagan miqdordagi mablag‘ni berish evaziga amalga oshiriladi yoki sotish niyati bo‘lmasa, ushbu joyda jamoat loyihalari amalga oshirilmaydi, degani.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan maydonlarni xususiy lashtirish jarayonini soddalashtirish, shaffofligini ta‘minlash hamda inson omilini kamaytirish (korrupsiyaning oldini olish) maqsadida arizalarni “Yerxususiy lashtirish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ko‘rib chiqish mexanizmi joriy etilgan.

Meros qilib qoldiriladigan, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish huquqi bilan berilgan bo‘sh yer uchastkalarini sotish mumkin emas. Lekin shunday huquqi bor shaxslar bino-inshoot qurib, qo‘shimcha yerini sotishga harakat qiladi. Hozirgi kunda bu amaliyot keng tarqalgan. Bu, tabiiyki, ortiqcha tashvish va sarf-xarajat keltirishi mumkin. Lekin bizda bo‘sh yerlarni xususiy lashtirib olib, keyin shu holicha oldi-sotdi qilish imkoniyati ham bor.

Hozir yurtimizda o‘zi egallab turgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish ishtiyogini bildirgan 90 mingga yaqin xususiy lashtirish subyekti mavjud. Bu raqamlar kun sayin o‘sib bormoqda. Chunki yerni xususiy mulk qilib olish orqali foydalanuvchi yerning huquqiy kafolati va xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiy aktivga aylantirish, mavjud moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishi mumkin.

Mazkur islohot shunchaki yerga egalik shaklini o‘zgartirish emas, balki keng qamrovli institutsional va ma‘muriy islohotlarning tarkibiy qismidir. Uning tub negizida shaxsiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini amalda kafolatlashga qaratilgan tizimli yondashuv yotadi. Yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer uchastkalarini iqtisodiy aylanmaga to‘liq kiritish, ularni erkin tasarruf etish, oldi-sotdi, hadya qilish, garovga qo‘yish kabi mulkiy munosabatlarning obyektiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi. Natijada yer nafaqat foydalaniladigan resurs, balki haqiqiy bozor aktiv va kapital manbaiga aylanmoqda. Mulk egalariining huquqiy kafolatlari va iqtisodiy imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Shaxsiy mulk daxlsizligini amalda ta‘minlash, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va ishbarmonlik faolligini rag‘batlantirish orqali mazkur islohot O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish va biznes hamjamiyati ishonchini yanada mustahkamlash yo‘lidagi strategik ahamiyatga ega muhim qadamdir.

Diyor ERGASHEV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti loyiha rahbari

Taraqqiyot odimlari

Soʻzim avvalida yangi Oʻzbekistonda birgina yoshlar siyosati sohasidagi islohotlarning jahon miqyosida tan olinayotganini anglatadigan bir necha muhim koʻrsatkichga eʼtiboringizni qaratmoqchiman. Soʻnggi 7 yilda Oʻzbekiston tomonining yoshlar masalalariga oid oʻnga yaqin global tashabbus va taklifini BMT tan olib, xalqaro miqyosda keng ommalashtirdi. Oʻzbekiston BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiritildi. 2023-yilda Yoshlar taraqqiyoti indeksiga koʻra, Oʻzbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tezkor surʼatlar bilan rivojlanayotgan mamlakat deb eʼtirof etildi. 2022-yilda Buxoro shahri birinchi Turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti, 2024-yilda Toshkent shahri birinchi MDH yoshlar poytaxti deb eʼlon qilindi...

Alisher SAʼDULLAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi
direktori, senator

“Hech bir yosh eʼtibordan chetda qolmaydi” degan muhim hayotiy tamoyil amaliyotga tatbiq etilayotgani natijasida qariyb 20 millionlik yoshlar qatlamiga bir koʻz bilan qarab, intilishlarini qoʻllab-quvvatlaydigan, kerak boʻlsa, yelka tutib, katta-kichik muammolarga birgalikda yechim topadigan tizim vujudga keldi. Bunday siyosatning samarasi oʻlaroq, yosh avlod vakillari xalqaro maydonlarda qoʻlga kiritayotgan yutuqlarni sanab oʻtirishimga hojat yoʻq deb oʻlayman. Bular Oʻzbekiston yoshlar bilan ishlash sohasida milliy modelini, samarali tizimini yaratayotgani mevasidir.

Joriy yil 13-18-aprel kunlari BMT bosh qarorgohida BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi Yoshlar forumi (ECOSOC)ning ochilish marosimida Oʻzbekiston yoshlari delegatsiyasining muvaffaqiyatli ishtiroki bu sohadagi munosib qadamlarimizdan biri boʻldi.

Mazkur nufuzli anjumanda mamlakatimiz yoshlar delegatsiyasi 2018-yildan buyon muntazam ishtirok etib, oʻz qarashlari, taklif va tashabbuslarini ilgari surib kelmogʻda. Dunyo yoshlari kelajagi haqida muhim qarorlar muhokama qilinadigan bu forumning asosiy maqsadi yoshlar 2030-yilgacha dunyoni yaxshilashga qaratilgan rejalar (yaʼni Barqaror rivojlanish maqsadlari) boʻyicha oʻz fikr va gʻoyalarni xalqaro miqyosda bildirishi hamda BMT qarorlariga taʼsir koʻrsatishi uchun imkoniyat yaratishdir.

Forum doirasida delegatsiyamiz Oʻzbekistonda yoshlar siyosati sohasidagi samarali islohotlar va ularning natijalari haqida taqdimot qilishi, xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalada Nyu-York shahrida qator uchrashuv, muzokaralar oʻtkazishi koʻzda tutilgan edi.

200 ga yaqin mamlakat ichida Oʻzbekiston yoshlariga BMT minbarida birinchi boʻlib taqdimot qilish imkoniyati berildi. Maʼruzada bugungi kunda yoshlar duch kelayotgan muammolarni bartaraf etishda raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt va kreativ iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi, bu borada davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni, shu jumladan, yosh xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan 100 dan ortiq imkoniyat va milliy jamgʻarma tashkil etilgani toʻgʻrisida taqdimot qilindi. Jahon hamjamiyati mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar va berilayotgan eʼtiborni yuksak eʼtirof etib, Oʻzbekiston yoshlarining raqamli savodxonlikni oshirish, yoshlar taʼlimiga sarmoyani kengaytirish va inklyuziv makonlar yaratishga oid chaqirigʻini qoʻllab-quvvatladi.

“Vakolatli yosh xotin-qizlar — gender tenglikni taʼminlash” mavzusidagi yalpi yigʻilishda ishtirok etgan delegatsiyamiz vakillari xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, zamonaviy kasblarga oʻrgatish muhim ekani va mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning taʼlim bilan qamrab olingani, davlat boshqaruvidagi oʻrni va bandligini taʼminlash borasidagi ijobiy natijalari boʻyicha maʼlumot berdi.

Oʻzbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi bilan hamkorlikda yoshlar delegatsiyasi tomonidan “Yoshlar yetakchiligida ilmiy innovatsiyalar, siyosiy va amaliy harakatlar: Kelajak uchun hamkorlikni rivojlantirish” mavzusida davra suhbatlari tashkil etilib, Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi amaliy ishlar va kelgusidagi rejalarni namoyish etildi.

Dunyo mamlakatlarning yoshlar siyosati yetakchilari va innovatsion fikrlovchi yoshlar

jamlangan forum biz uchun xalqaro sahnada oʻz soʻzimizni aytish, hamkorlik va tajriba almashish uchun noyob imkoniyatdir. Shu bois, ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish va vatandoshlar bilan muloqot qilish maqsadida qator samarali uchrashuvlar oʻtkazdik.

BMT rasmiylari bilan muloqotlar

BMT Bosh kotibi oʻrinbosari, BMT Yoshlar ofisi rahbari Felipe Paulliyer bilan muloqot koʻtarinki va iliq ruhda oʻtdi. Felipe Paulliyer Oʻzbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yoshlar siyosati boʻyicha haqiqiy namuna sifatida ajralib turganini taʼkidladi. BMTning “Yoshlar strategiyasi — 2030” doirasida Oʻzbekiston dunyoning eng ilgʻor 10 mamlakati qatoridan joy olgani, “Kelajak pakti” tashabbusining mintaqada aynan Oʻzbekistonda namuna sifatida yoʻlga qoʻyilgani alohida eʼtirof etildi.

Felipe Paulliyer joriy yil may-iyun oylarida Oʻzbekistonda oʻtkaziladigan Global yoshlar festivalida ishtirok etish istagini bildirdi.



Oʻzbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi bilan hamkorlikda yoshlar delegatsiyasi tomonidan “Yoshlar yetakchiligida ilmiy innovatsiyalar, siyosiy va amaliy harakatlar: Kelajak uchun hamkorlikni rivojlantirish” mavzusida davra suhbatlari tashkil etilib, Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi amaliy ishlar va kelgusidagi rejalarni namoyish etildi.

BMT Bosh kotibi oʻrinbosari, Dengizga chiqish imkoniyati cheklangan davlatlar boʻyicha oliy vakil Fotima Rabab bilan uchrashuvda Oʻzbekiston va BMT oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanish tendensiyalari, Toshkent shahrida BMT Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti — FAO hamkorligida tashkil etilgan “Dengizga chiqish imkoniyati cheklangan, rivojlanayotgan davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligi va Barqaror rivojlanish maqsadlari” xalqaro forumining ahamiyati, kelgusidagi tadbir va loyihalar yuzasidan fikr almashildi.

Turkmanistonda oʻtkazilishi rejalashtirilgan Dengizga chiqish imkoniyati cheklangan rivojlanayotgan davlatlarning 3-konferensiyasi doirasida yoshlar forumini tashkil etish hamda 2025-yil may oyida oʻtkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida Fotima Rababning ishtiroki yuzasidan kelishuvga erishildi.

Forum kun tartibidan oʻrin olgan yana bir uchrashuv UNESCOning Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi rahbari Elliot Minchenberg bilan boʻldi. Uchrashuvda joriy yil oktyabr oyida UNESCOning Samarqand shahrida oʻtkazilishi koʻzda tutilgan 43-sessiyasi doirasida 14-UNESCO Yoshlar forumini hamkorlikda tashkil etish yuzasidan fikr almashildi. UNESCO vakili Oʻzbekistonni bunday yuksak ishonch va masʼuliyat bilan tabrikladi.

Taʼlim va startaplar sohasida hamkorlik rivojlanadi

Bugungi kunda dunyoning top oliy oʻquv yurtlarida 1,5 mingdan ziyod talabamiz tahsil olmoqda. Bu ilgari Oʻzbekiston tarixida



OʻZBEKISTONNING YOSHLAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI BMTNING YOSHLAR FORUMIDA YUKSAK EʼTIROF ETILDI

kuzatilmagan koʻrsatkich. Soʻnggi 7-yilda birgina “El-yurt umidi” jamgʻarmasi orqali 2300 yosh xorijga oʻqish uchun yuborilgan.

Davlatimiz rahbari shu yil 14-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan oʻtkazgan ochiq

rahbari tashabbusi bilan har yili oʻn minglab talabanning kontrakt pullari davlat tomonidan qoplab berilayotgani, talaba qizlarga foizsiz taʼlim kreditlari ajratilayotgani, magistraturada oʻqitish toʻliq bepul amalga oshirilayotgani, endilikda kambagʻal oilalarning iqtidorli farzandlari ham chet eldagi nufuzli oliy oʻquv yurtlarida tahsil olishi uchun shart-sharoitlar yaratilayotgani eʼtirof etildi.

Jonli va samimiy ruhda oʻtgan uchrashuvlar yakunida “Yoshlar Ventures”, Yosh tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasi bilan “NY Tech Alliance” va “The FedCap” oʻrtasida hamkorlik aloqalari oʻrnatildi. Oʻylaymanki, bu texnologik rivojlanishga qiziqqan oʻzbekistonlik yoshlar uchun yangi imkoniyatlar, tajriba almashish va mutaxassislarni jalb qilish yoʻlida muhim qadam boʻladi.

Delegatsiyamiz Kaliforniya shtatining Silikon vodiysida “Coursera”, “500 Global”, “Plug and Play”, “Silkroad Innovation Hub”, “HP”, “Google”, “StartX” kompaniyalari, Minerva va Stanford universitetlari vakillari bilan uchrashuvlar oʻtkazdi. Hamkorlik anjumanlariga Oʻzbekiston yoshlarini global raqamli bilimlar tizimiga integratsiya qilish, zamonaviy koʻnikmalarni rivojlantirish, onlayn kurslar orqali kasbiy malaka va raqobatbardoshlikni oshirish, taʼlimni mehnat bozori talablariga uygʻunlashtirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar taʼlim sohasidagi strategik hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarni sifati taʼlim resurslariga jalb etish hamda bandligini taʼminlash yuzasidan fikr almashdi.



AQSH safari davomida erishilgan kelishuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, vatandoshlar bilan uchrashuvlarda bildirilgan taklif va tashabbuslarni hayotga tatbiq etish maqsadida alohida “yoʻl xaritasi” ishlab chiqilmoqda. Ishonchm komilki, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi Yoshlar forumi doirasida erishilgan kelishuvlar yurtimiz yoshlariga yangi imkoniyatlarni yaratish, pirovardida yoshlar siyosati sohasida Oʻzbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda “Coursera” onlayn taʼlim platformasi, “Plug and Play — Uzbekistan” filiali, “Silkroad Innovation Hub”, “Startx” kompaniyalari bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Uchrashuvda “Silkroad Innovation Hub” kompaniyasi Markaziy Osiyo va Oʻzbekiston uchun maxsus yangi — “Silikon

vodiysi amaliyot dasturi” loyihasiini taqdim etdi. Eʼtiborga molik jihati shundaki, “Silkroad Innovation Hub” kompaniyasiga Stanford universiteti bitiruvchilari oʻzbekistonlik Asror Arabjonov va qozogʻistonlik Aset Abduliyev asos solgan. Ular taqdim etgan dasturga koʻra, oʻzbekistonlik 10-11-sinf oʻquvchilari oʻrtasida mahalliy startaplar chempionati oʻtkazilib, gʻolib va sovrindorlarni Kaliforniya shtatining Palo Alto shahrida joylashgan Silikon vodiysiga 1 oylik maxsus amaliyot dasturiga yuborish koʻzda tutilgan.

Umuman, delegatsiyamizning taʼlim, tadbirkorlik va maʼnaviy-maʼrifiy yoʻnalishdagi muloqotlari kutilganidek samarali oʻtdi. Stenford universitetida dunyoga mashhur “Venture Mindset” kitobi muallifi — professor Ilya Strebulayev bilan uchrashuv ham shulardan biri boʻldi. Professor Oʻzbekistonda startaplarni rivojlantirish va venchur fondlarni qoʻllab-quvvatlash kabi masalalar yuzasidan tavsiyalari bilan oʻrtqolashdi. Muloqotda professorning mashhur kitobini oʻzbek tiliga tarjima qilish hamda kitob taqdimotida muallifning ishtiroki masalalari muhokama qilindi.

Innovatsion taʼlimning jozibadorligi

Shu oʻrinda Oʻzbekiston yoshlar delegatsiyasining AQSH safaridagi muhim voqealardan biri San-Fransiskoda joylashgan Minerva universitetiga tashrif haqida atroflicha toʻxtalmoqchiman. Dunyoning eng innovatsion oliy taʼlim muassasalaridan hisoblangan bu

moliyalashtirishdagi muvaffaqiyatli tajribasi bilan ajralib turadi. Universitet asoschisi va rektori Ben Nelson bilan muloqotda ayni tajribalarni Oʻzbekistondagi oliy oʻquv yurtlariga moslashtirish masalalarini koʻrib chiqdik.

Ben Nelsonning fikricha, universitetdagi sifatli taʼlim uchun eng muhim omil katta, qimmat kampus emas, balki sayohat orqali oʻrganishdir.

Uning taʼlim modeliga koʻra, talaba 4-yil (8 ta semestr)ni 7 ta shaharda oʻtkazadi va amaliyotda qatnashadi. Birinchi va oxirgi semestr San-Fransiskoda, qolganlari Seul, Taypey, Haydarobod, Buenos-Ayres, Tokio va Berlinda oʻtadi. Akademik yil davomida talaba professorlar bilan doimiy muloqotda boʻladi va darslar innovatsion platforma orqali amaliyot bilan uygʻunlikda olib boriladi.

Universitet bitiruvchilari dunyoning nufuzli kompaniyalariga ishga kirmoqda. Chunki kompaniyalarga hammasini boshidan oʻrgatish kerak boʻlgan odamlar emas, balki soha ichida tajribaga ega yoshlar kerak.

Minervaning taʼlim modelidan namuna olib, mamlakatimizda ham startap ekotizimini mustahkamlovchi va talabalarga amaliy bilim berishga yoʻnaltirilgan dasturlarni joriy etish zarur deb oʻylayman. Bu nafaqat innovatsion gʻoyalarni qoʻllab-quvvatlash, balki ilm-fan bilan biznes oʻrtasidagi integratsiyani kuchaytirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston yoshlarining Minerva tajribasini oʻrganishga qiziqishi mamlakatimizda innovatsion taʼlimga ehtiyoj ortayotganini koʻrsatadi. Uzoq muddatli istiqbolida bunday tashabbuslar global bilim maydoniga integratsiyalashuvning asosiy omillaridan biri boʻlib xizmat qilishi shubhasiz.

AQSHdagi vatandoshlar bilan uchrashuvlar

Xorijdagi vatandoshlarning muammolarini oʻrganish va ularga yechimlar topish davlatimiz siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Shu bois, AQSHdagi vatandoshlar bilan uchrashuvlarimiz juda samimiy va samarali oʻtganini taʼkidlashni istardim. Xususan, Nyu-Yorkdagi “Mahalla USA” va “ZiyoArt” taʼlim markazida vatandoshlar hamjamiyatlari rahbarlari va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan hamyurtlarimiz bilan muloqot qilidik.

Uchrashuvda Grin karta (Green card) orqali AQSHga kirib kelayotgan vatandoshlarning aksariyatida qonun-qoidalarini, til va kasb bilmaslik holatlarini muammoga aylanib borayotgani, AQSHga kelish istagini bildirgan vatandoshlar uchun maxsus moslashuv dasturini ishlab chiqish muhimligi taʼkidlandi.

Amerika oliy oʻquv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlarimiz ham koʻpchilikni tashkil etadi. Shu bois, delegatsiyamiz vakillari “El-yurt umidi” jamgʻarmasi stipendiatlari va Ivy League (Pechak ligasi — AQSHdagi 8 ta nufuzli xususiy universitet)da tahsil olayotgan iqtidorli talabalarimiz bilan ochiq muloqot oʻtkazdi. Uchrashuvda texnologiya, taʼlim, iqtisodiyot, tibbiyot kabi dolzarb yoʻnalishlarda fikr almashildi, taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

“El-yurt umidi” stipendiasi — Nyu-Yorkda tahsil olayotgan qoraqalpogʻistonlik Gulxumor Jaxsilikovaning hikoyasi — chekka qishloqdan boshlangan yoʻl, orzulari va jasorati bugungi islohotlar samarasi sifatida eʼtirof etildi. BMT Bosh qarorgohi huzuridagi Xalqaro savdo markazida faoliyat yuritayotgan Diyora Shukurova ham yoshlarimizning xalqaro maydondagi nufuzini yana bir bor namoyon etdi. Nyu-Yorkdagi bu samimiy uchrashuv yangi rejalarni va xalqaro loyihalar uchun mustahkam zamin boʻldi, desam adashmayman.

AQSH safari davomida erishilgan kelishuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, vatandoshlar bilan uchrashuvlarda bildirilgan taklif va tashabbuslarni hayotga tatbiq etish maqsadida alohida “yoʻl xaritasi” ishlab chiqilmoqda. Ishonchm komilki, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi Yoshlar forumi doirasida erishilgan kelishuvlar yurtimiz yoshlariga yangi imkoniyatlarni yaratish, pirovardida yoshlar siyosati sohasida Oʻzbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

ENG KUCHLI VA HAYOTIY TASKIN

Durdona Ochildiyeva Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tumanida yashaydi. Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutini tamomlagan. Parasportning kamondan oʻq otish turi bilan shugʻullanadi. Barcha singari hayotni yaxshi koʻradi, oʻzining orzu-maqsadlaridan kuch oladi.

Mamlakatda oʻzi kabi imkoniyati cheklanganlarga yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, niyatlarini roʻyobga chiqarish uchun astoydil intiladi. Taqdir taqozosiga koʻra, protez moslamasi bilan harakatlanuvchi qizning rejasi koʻp.

Surxondaryo viloyatidagi nogironligi boʻlgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazida 4 ta boʻlim faoliyat yuritadi. Bu yerda 20 dan ortiq kasallikni davolash uchun zamonaviy tibbiy anjomlar mavjud.

— Hayotdan umidim butunlay uzilgan edi. Toʻshakka mixlanib qolgandim. Ikki koʻzim televizorda, qismatim shu ekan-da deb yotaverardim. Davlatimizning eʼtibori tufayli Termizdagi reabilitatsiya markazida menga yangi imkoniyat berildi. Endi oʻzimni yaxshi va yengil his etyapman, — deydi Durdona.

Hozir Termizdagi reabilitatsiya markazida sport zal ham mavjud. Bu yerda barcha sport anjomlari jamlanib, maxsus trenerlar ishlamoqda.



Sport zalidagi sharoit yurtdoshlarimiz salomatligi tezroq tiklanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. — Vujudni xastalikdan ozor chekayotganlarni

hayotdan zavq olib yashashga undaydigan eng kuchli taskin — umid! Umidvorlik hissi doimiy mehr va eʼtibor koʻrgan qalblarda ildiz otadi, joʻsh uradi, — deydi psixolog Umida



Yoʻldosheva. — Ularning ruhiyatini koʻtarish orqali kasallikning yarmini davolash mumkin. — Avvalo, eng chekka hududlarda ham nogironligi boʻlgan shaxslar uchun

yaratilayotgan sharoitlar nafaqat moddiy yordam, balki ularning jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishiga qaratilgan amaliy tadbirlar. Aslida, jamiyatda imkoniyati qanday boʻlishidan qatʼi nazar, har bir fuqaro teng huquqli deb qabul qilingandagina insonparvarlik gʻoyalari haqiqiy ifodasini topadi, — deydi Nogironligi boʻlgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi shifokori Ikromiddin Bozorov.

Sogʻliqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan 25-apreldan 25-mayga qadar mamlakatimizning barcha hududida “Sogʻlomlashtirish oyligi” oʻtkazilmoqda. Oylik doirasida ehtiyojmandlarga tekzor va manzilli yordam koʻrsatish, hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj, kambagʻallik reyestriga kiritilganlar orasida kasalliklarni erta aniqlash maqsadida Shoʻrchi tumanidagi 89-oilaviy shifokorlik poliklinikasida bepul tibbiy koʻrik va skrininglar tashkil etilmoqda.

— Birinchi navbatda, oʻzgarlar parvarishiga muhtoj keksalar, yotib qolgan nogironligi bor bemorlar maxsus mobil brigadalar tomonidan uy sharoitida tekshiruvdan oʻtkazilmoqda, — deydi shifokor Baxtiyor Abrayev. — Tibbiy koʻrik natijasida aniqlangan bemorlar xavf omillari, kasallik guvrlari boʻyicha toifalarga ajratiladi. Shundan soʻng xastalik tashxisi tasdiqlangan bemorlar uchun individual sogʻlomlashtirish rejasi tuziladi. Ambulator, uy shifoxonasi va kunduzgi stasionarda salomatligini tiklaydigan aholi vakillariga oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalarda mavjud dori-darmonlar bepul beriladi.

Termiz shahri koʻp tarmoqli markaziy poliklinikasida ham Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashgan markazi shifokorlari ishtirokida tibbiy koʻrik oʻtkazildi.

— Miya qon tomirlari kasalligi (insult) butun dunyo boʻylab eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. U tufayli miyaga qon ketishi va boshqa asoratar vujudga kelishi mumkin. Bu kasallik turli yoʻllar bilan paydo boʻladi. Shu bois, u bilan kechayotgan belgilarga aslo befarq qarash kerak emas, — deydi Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashgan markazi boʻlim mudiri Abduvali Jalilov. — Tibbiy koʻrikda kasallik alomatlarini aniqlangan bemorlarga chuqurlashtirilgan tekshiruvlar oʻtkazilishi, davolanish tartiblari tushuntirilmoqda.

Termiz shahri koʻp tarmoqli markaziy poliklinikasida ham sogʻlom turmush tarziga rioya etish, toʻgʻri ovqatlanish tamoyillari yuzasidan targʻibot tadbirlari oʻtkazildi.

Oʻzbekistonda inson qadri, huquq va imkoniyatlarini taʼminlash davlat siyosatidagi ustuvor yoʻnalishga aylanmoqda. Imkoniyati cheklangan, ijtimoiy reyestriga kiritilgan, nogironligi boʻlgan fuqarolar uchun yaratilayotgan sharoitlar, amalga oshirilayotgan islohotlar insonparvar jamiyat sari tashlanayotgan muhim qadamlardandir.

S. TOʻRAYEV,
jurnalist

6

2025-yil 3-may, 90-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

Albatta o'qing!

Barkamol soddalik

("So'z latofati" kitobidan)

Odatda shoirlar mahorat pillapoyalaridan yuksalib, avval soddalikdan murakkablikka, so'ng murakkablikdan yana soddalikka qarab yuradilar. Lekin bu orqaga qaytish emas. Ikki soddalik o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Dastlabki soddalik jo'nlik darajasida bo'lsa, keyingisi barkamollik sanaladi. She'rim soddalikda shuhrat qozongan, deb yozganda G'afur G'ulom badiiy mahoratning yuksak bosqichini ko'zda tutgan.



Erkin Vohidov

O'ylasam, tillar taraqqiyoti ham shunday bosqichlardan o'tar ekan. Dunyoda lug'at boyligi mingta so'zga yetib-yetmaydigan ibtidoiy qabilalar ham, so'z xazinasini milliondan oshadigan mutaraqqiy millatlar ham bor. Qabila uchun mingta so'z yetib ortadi, lekin madaniyati yuksak xalqlarga million ham kamlik qilib, boshqa tillardan so'z oladilar.


Tillarni qiyosiy o'rganuvchi olimlar so'z qurilishining soddaligini, qoidalarining aniq va izchilligini, istisnolarning kamligini muayyan tilning barkamolligi, deb qaraydilar. Bu ayni haqiqat. Til taraqqiyot egani sari chigalliklardan qutulib borar ekan. Shu o'lchov bilan tarozuga qo'ysak, o'zbek tili dunyoning eng rivojlangan tillari qatorida turadi.

Barkamollik so'z yasashning soddaligi, qulayligidan boshlanadi. Biz ikki so'zni yonma-yon qo'yib, ortiqcha qo'shimchalarisiz yangi so'z yasaymiz. Sopol tovoq, temir yo'l, kumush qoshiq, yog'och oyoq, taxta ko'priki, tilla uzuk, deymiz-qo'yamiz. Boshqa tillardagi kabi ikki so'z o'rtasiga vositachi tirkama qo'yib o'tirmaymiz. Inglizlarda ham so'z yasash juda oddiy. Oyoqning yoniga to'pni qo'yib, futbol so'zini qurganlar. O'zbekchada oyoq to'p desa bo'ladi. Lekin rus tilida hora bilan мяч o'zaro birikolmaydi. Ularni qo'shish uchun dastlab hora so'zini sifatga, ya'ni ножнойга aylantirish kerak. Endi мяч so'zining muzakkar yo muannasligini, мужской yo женский rojda ekanini aniqlash lozim. Oxirida yumshatish belgisi bor so'zlar yarmi — muzakkar, yarmi — muannas. Buni aniqlashning qoidasi yo'q. Мяч ножной bo'ladimi yo ножная? Nega hora so'zi sifat shakliga kirib noj bo'ldi va pichoqoga aylandi? Bilmagan odam bilmaydi. Bunday murakkabliklar tilning bezagi emas.

Biz o'z tilimizdagi soddalik va aniqlik qadriga yetishimiz kerak. Boshqa tillarga taqild qilib so'z yasash qoidasini ilmiy tahrirdan o'tkazishga hojat yo'q. Non do'koni, qo'l soati, qor odami, ko'z yoshi — yasama so'zlar. Oddiy xalq — qo'l soat, non do'kon, qor odam, ko'z yoshi deydi va o'zbek tili qoidasiga rioya qiladi. Qoida yaratuvchilardan ko'ra to'g'riroq aytadi. Axir bilak uzugi, qo'l qopi, yer yong'og'i demaymiz-ku.

“

DUNYO TILSHUNOSLARI E'TIROF ETGAN SODDALIKDA BUYUK, BOYLIKDA UMMON TILIMIZ BOR. UNING IJODKORI DONISHMAND XALQIMIZ, ELNING MING YILLAR DAVOMIDA YETISHTIRGAN ULUG' OLIMLARI, SHOIRLARI, ZAKIY FARZANDLARI. BU ULKAN BOYLIK BIZNIKI, QONUNIY MEROS EGASI BIZ BO'LAMIZ.



Hamma birday qo'lgop, bilaguzuk, yeryong'oq deydi. Sohobqiron bobomizi Amir Temur, buyuk temuriyzoada Zahiriddin Bobur o'z farzandlariga Shohruh deb, Hindol deb ism berganlarida turkiy — o'zbek tilining ana shu go'zal imkoniyatidan zargarona foydalangan.

O'zbek tilida otlar va fe'llar jinsi farqlanmaydi. So'zlarning muzakkar-muannasi, erkakcha-ayolchasi yo'q. Hammasi bir xil. Bu ham so'zlashni osonlashtiradi. Men o'zim shuncha yil rus tilida muomala qilib, hali hamon rodlarni adashtiraman. Nega день — mujskoj, ночь — jenskiy roddi? Nega oktabr — тѣплый, октябрь — теплый? Ne sabab дичь — boshqa, соболь — boshqa jinsda? Men uchun tushunarsiz. O'z tilimdan qo'ymasini, deyman.

Biz biror shimga yo voqegaga sabab bo'lgan odamni sababchi demizm. Rus tilida prichina bor, lekin bu so'zdan sababchi yasab bo'lmaydi. Shu bois to'y-tantana sababchisini yarim hazil bilan vinovnik torjesta deydlar. Boshqa so'z bo'lmasa nima qilsinlar?

Jo'nalish kelishigi yasash ham o'zimizda oson. Hamma so'zga tirkasa bo'ladigan ga qo'shimchamiz bor. Ruslar Kiyevga borsalar в Киев, Ukrainaga borsalar

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

YANGI O'ZBEKISTON



9-may — Xotira va qadrlash kuni

1990-yil aprelining nurafshon tonglaridan birida ko'hna Zominning qadimiy Yom qishlog'i odamlar bilan gavjum bo'ldi. Qishloq chetidagi qabriston tomon oqib kelayotganlarning oxiri ko'rinnmasdi. Katta-kichik, kekxa-yosh — hammaning boshi egik, ko'zlarida nam. Shu kuni qabristonda odatdagidan boshqacharoq dafn marosimi bo'ldi. Bundan salkam yarim asr muqaddam Ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan Avazmat Niyozmatovning xoki qishloq qabristoniga dafn etildi.



9-mayda Avazmat Niyozmatov kim edi? Bu savolga oydinlik kiritish uchun urushning dastlabki kunlaridagi voqealarni eslaymiz. Avazmat shu qishloqda tug'ilib voyaga yetgan. U yoshligidan chaqqon harakatlari va jasurligi bilan ajralib turardi. Ot sporti bilan shug'ullanib, turli musobaqalarda bir necha bor g'olib chiqqan. Qishloqda otchilik xo'jaligi bo'lib, mudofaa qismlariga harbiy otlar yetkazib berardi.

1940-yilda Samarqand viloyatidan harbiy xizmatga chaqirilgan Avazmat yigitlik burchini Brest qal'asi atrofida o'tadi. Urush boshlanishidan bir kun oldin — 1941-yil 21-iyunda u Brest qal'asida xizmat qilayotgan hamyurti Madamin Hojiyev oldiga keladi. Dam olish kunlari bo'lgani uchun ikki do'st kechgacha sayr qiladi, kino ko'rib, hordiq chiqaradi. Shu kecha Avazmat do'sti bilan qal'ada tunab qoladi.

Brest qal'asi 1833-1838-yillarda Brest shahridan 2 kilometr g'arbda, Bug daryosi o'ng sohilida bunyod etilgan bo'lib, o'z davrining mukammal qurilish



arxitekturasiga ega inshoot edi. Qal'a 2000 nafar harbiy oila a'zolari bilan yashashiga mo'ljallangan. Avazmat mehmon bo'lgan kecha qal'aga Moskvadan san'atkorlar kelgan, barcha harbiylar oila a'zolari bilan konsert tomosha qilib, raqsga tushgan.

1941-yil 22-iyun sahar chog'i boshlangan urush hammani sarosimaga soladi. Hali ko'zini uyqu tark etmagan askarlar qo'lga qurol oladi. Urushning dastlabki daqiqalari va vatan himoyasi xuddi shu Brest qal'asidan boshlanadi Avazmat uchun.

Qal'a ichida askarlamning umr yo'ldoshlari, bola-chaqalari, o'quvchilar yashardi. Avazmat ularni yerto'alarga joylashtirishda jonbozlik ko'rsatdi. Qal'ada shoshilinch harbiy kengash tuzildi.

Katta kuch bilan tashlangan dushman askarlari qisqa vaqtda qal'ani qamal etib, darvozalaridan ichkariga kirishga harakat qilardi. To'rt tomondagi darvozalar qarshisiga pulemyot o'rnatib, jangchilar tashqariga chiqishiga yo'l qo'ymasdi. Qal'ada mudofaa shtabi tuzilib, askarlar va harbiylar oila a'zolarini o'rmonga qarishar rejai ustida bosh qotiriladi. Nisbatan zaifroq hujum uyushtirilayotgan sharqiy darvoza qarshisidagi o't ochish nuqtasini yo'q qilish rejalashtirildi va bu vazifa oddiy askar Avazmat Niyozmatovga topshirildi.

Avval bu topshirig'i bajarishga kirishgan bir necha jangchi dushman o'qidan halok bo'ladi. Buni yaxshi anglagan Avazmat boshqacha yo'l tutadi. U qal'aga oqib kiruvchi Bug daryosini kechib o'tib, dushmanning o't ochish nuqtasini yo'q qiladi. Qisqa fursatda qal'adagi

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 01:00 Topshirildi — 01:05